

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHAMURATOVA GULNAZ MURATBAYEVNA

**OROLBO‘YI SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING HOZIRGI HOLATI
VA ULARNING UNUMDORLIGINI OSHIRISH
AGROBIOTEXNOLOGIYALARI (NUKUS TUMANI TUPROQLARI
MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘T: 631.4:631.445.57(575.172)

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Shamuratova Gulnaz Muratbayevna

Orolbo‘yi sug‘oriladigan tuproqlarning hozirgi holati va ularning unumdorligini oshirish agrobiotexnologiyalari (Nukus tumani tuproqlari misolida) 3

Шамуратова Гулназ Муратбаевна

Современное состояние орошаемых почв Приаралья и агrobiотехнологии повышения их продуктивности (на примере почв Нукусского района) 21

Shamuratova Gulnaz Muratbayevna

The current state of irrigated soils of the Aral Sea region and agrobiotechnologies for increasing their productivity (on the example of the soils of Nukus district)... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHAMURATOVA GULNAZ MURATBAYEVNA

**OROLBO‘YI SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING HOZIRGI HOLATI
VA ULARNING UNUMDORLIGINI OSHIRISH
AGROBIOTEXNOLOGIYALARI (NUKUS TUMANI TUPROQLARI
MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Qx955 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash web- sahifasida (nauka@nuu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (<http://www.ziynet.uz/>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gafurova Lazizaxon Akramovna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumamuratov Ajimurat
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 raqamli Ilmiy kengashning 2024 -yil "09" yanvar kuni soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya fakulteti binosi, 4-qavat, 403-xona Tel.: (99871) 246-67-72, e-mail: nauka@nuu.uz.).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 194 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 -yil "25" dekabr kuni tarqatildi.
(2023 -yil "25" dekabrda 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



Jabbarov Z.A.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

Maxkamova D.Yu.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, b.f.d., dotsent

Nabiyeva G.M.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda qishloq xo‘jaligining asosiy muammolaridan biri sho‘rlangan tuproqlar hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi, haroratning keskin ko‘tarilishi natijasida qurg‘oqchilikning kelib chiqishi sho‘rlangan tuproqlar maydonining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda yer yuzining 8,7%ini sho‘rlangan tuproqlar egallagan. Shundan 424 million gektardan ortiq tuproqning haydalma qatlamini tashkil etgan bo‘lsa, 833 million gektari haydalma ostki qatlamlarida kuzatilgan¹. Tuproqlar sho‘rlanishi natijasida uning xossalari buzilishiga va qishloq xo‘jaligi ekinlari ko‘p zarar ko‘rishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, sho‘rlangan tuproqlarining agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalari va biologik faolligini o‘rganish hamda ularning unumdorligini oshirishda agrobiotexnologiyalarni qo‘llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini oshirishda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bir qator ustivor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bio- va nanopreparatlarning tuproq agrofizikaviy xossalari, qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta‘sirini aniqlash, tuproqlarning xossalari maqbullashtirish va ularning unumdorligini oshirishda qo‘llaniladigan zamonaviy agrotexnologiyalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz sug‘oriladigan tuproqlaridan samarali foydalanishda zamonaviy agrobiotexnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, tuproqning agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalari yaxshilash, unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jalik ekinlaridan olinadigan hosildorlikni oshishiga erishilmoqda. Lekin, Orolbo‘yi sug‘oriladigan tuproqlarida bio- va nanopreparatlarning tuproq xossalari ta‘siri bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlarga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “...tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish”²ga yo‘naltirilgan zarur strategik vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli Orolbo‘yi sug‘oriladigan tuproqlarida bio- va nanopreparatlarning tuproq agrofizikaviy hamda agrokimyoviy xossalari, uning unumdorligini oshirishga, qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta‘sirini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy agrotexnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³ va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973-sonli “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”⁴ ,

¹ <https://www.fao.org/soils-portal/data-hub/soil-maps-and-databases/global-map-of-salt-affected-soils/zh/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973-son “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyuldagi PQ-5202-sonli BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi⁵ 2023 yil 11-sentyabr, PF-158-son “O‘zbekiston 30” Strategiyasi “Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta‘sirini yumshatish to‘g‘risida”gi⁶ maxsus maqsadni amalga oshirish bo‘yicha hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajariladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijda va respublikamizda sho‘rlangan tuproqlarning xossalarini o‘rganish, unumdorligini saqlash, oshirish va meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Bunday tadqiqotlarni olib borgan xorijiy olimlardan Y.P.Aleshin, M.M.Shukin, A.X.Sheudjen, V.K.Bugayevskiy, S.I.Ignatenko, V.Nesterov, I.Ye.Belousov, V.A.Popov, D.A.Anger, N.Bissonnetto, M.Duvol, M.R.Liverdiere, C.Witt, K.G.Cassman, J.C.Ottow, U.Buker va respublikamiz olimlaridan V.G.Popov, R.Q.Qo‘ziyev, V.Ye.Sektimenko, I.T.Turapov, L.T.Tursunov, B.S.Mambetnazarov, B.Jollibekov, A.Rasulov, S.A.Abdullayev, O.Komilov, A.Ramazonov, X.T.Risqiyeva, L.A.Gafurova, M.M.Toshquziyev, R.K.Kurvontoyev, G.Yuldashev, A.J.Ismanov, A.U.Axmedov, Y.B.Saimnazarov, M.E.Saidova, G.M.Nabiyeva, A.J.Bairov, D.A.Kadirova, G.I.Djumaniyazova, A.A.Tursunov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Sho‘rlangan tuproqlarning unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish hamda sifatini baholash amaliy ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda ishlab chiqarilgan yangi bio- va nano preparatlardan tuproq unumdorligini tiklash va oshirishda qo‘llash hamda maqbul me‘yorlarini ishlab chiqish borasidagi ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Milliy universiteti Biologiya fakulteti Tuproqshunoslik kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orolbo‘yi hududi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning hozirgi holatini aniqlash va ularning unumdorligini oshirish agrobiotexnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyuldagi PQ-5202-son “Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasining 2021-yil 18-maydagi “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qarori.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

Tadqiqotning vazifalari: Orolbo‘yi hududining tuproqlarini paydo qiluvchi omillarini hududiy xosligidan kelib chiqib, ularni morfologik, agrokimyoviy, kimyoviy, fizikaviy va biologik xossalarni o‘rganish;

Orolbo‘yi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning umumiy va nisbiy biologik faolligi hamda uning informativ ko‘rsatkichlari bo‘yicha ta‘minlanganlik va faollik darajasi aniqlash;

sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar mikroorganizmlarining fiziologik guruhlari miqdori va tarqalish qonuniyatlari, tuproqlar agrokimyoviy, fizikaviy, kimyoviy xossalari va biologik faollik o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqliklari aniqlash;

hududning sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar mikrobiotsenozining amilolitik va proteolitik qismi – organik moddalarini transformatsiyasi hamda degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini shakllantirish jarayonlaridagi o‘rnini o‘rganish;

Orolbo‘yi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning funksional va ko‘p omilli xarakteristikasiga ega ekologik-biologik holatini tabiiy va antropogen omillarga ko‘ra o‘zgarishini va tuproqlar degradatsiya darajasini aniqlashda diagnostik mezon sifatida xizmat qilishini aniqlash;

hududning sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning xossa-xususiyatlari (agrokimyoviy, kimyoviy va fizikaviy) va biologik faolligining informativ ko‘rsatkichlariga (mikroorganizmlarning fiziologik guruhlari – ammonifikatorlar, aktinomitsetlar, oligonitrofillar, fosforparchalovchi, mikromitsetlar; fermentlar faolligi – ureaza, katalaza, invertaza, polifenoloksidaza, peroksidaza) agrobiotexnologiyalar ta‘sirini aniqlash.

Tadqiqotning ob‘yekti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanidagi degradatsiyaga uchragan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari olingan.

Tadqiqotning predmeti o‘tloqi-allyuvial tuproqlar, mexanik tarkib, unumdorlik, fermentlar faolligi, organik moddalar va ularning transformatsiyasi, ekologik-biologik holati integral ko‘rsatkichi, bio- va nanopreparatlar, sholi hosildorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriya tadqiqotlari respublikada umumqabul qilingan standart uslublar bo‘yicha amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda tuproq tahlillari Ye.V.Arinishkinaning “Tuproqning kimyoviy tahlillari bo‘yicha qo‘llanmasi”, tuproqdagi fermentlar faolligi F.X.Xaziyevning “Методы почвенной энзимологии”, mikroorganizmlar miqdori Zvyaginsevning “Tuproq mikrobiologiyasi va biokimyosi”, tuproqlarning ekologik-biologik holatining integral ko‘rsatkichlari (TEBHIK) K.Sh.Kazeev va boshqalarning “Tuproqning biologik diagnostikasi: tadqiqotlar metodologiyasi va usullari” qo‘llanmasi, dala tajribalari va olingan natijalarning statistik tahlillari B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubiy qo‘llanmalari va barcha agrotexnologik tadbirlar Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan agrotavsiyalar asosida bajarildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Orolbo‘yi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning umumiy va nisbiy biologik faolligi hamda uning informativ ko‘rsatkichlari bo‘yicha

ta'minlanganlik va faollik darajasi aniqlangan;

sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar mikroorganizmlarining fiziologik guruhlari miqdori va tarqalish qonuniyatlari, tuproqlar agrokimyoviy, fizikaviy, kimyoviy xossalari va biologik faollik o'rtasidagi korrelyativ bog'liqliklari aniqlangan;

ilk bor hududning sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar mikrobiotsenozining amilolitik va proteolitik qismi – organik moddalarining transformatsiyasi hamda degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini shakllantirish jarayonlaridagi o'rni isbotlangan;

Orolbo'yi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning ekologik-biologik holati – tuproqning funksional va ko'p omilli xarakteristikasi bo'lib, tabiiy va antropogen omillarga qarab o'zgarib turishi isbotlangan hamda tuproqlar degradatsiya darajasini aniqlashda diagnostik mezon sifatida xizmat qilishi isbotlangan;

hududning sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning xossa-xususiyatlari va biologik faolligining informativ ko'rsatkichlari agrobiotexnologiyalar ta'sirida yaxshilanganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tuproq ekologik-biologik holatining integral ko'rsatkichi qiymati asosida biodiagnostika mezonlari ishlab chiqilgan va organik moddaning transformatsiya koeffitsiyenti hamda biologik faolligiga ko'ra guruhlarga ajratilgan;

hudud sug'oriladigan kuchsiz sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari unumdorligini oshirishda agrobiologik texnologiya qo'llash asosida tuproqlarning xossalari (agrokimyoviy, kimyoviy, fizik, biologik) yaxshilanishi va sholi hosildorligi oshishi aniqlangan;

degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida qo'llanilgan agrobiotexnologiya bio- va nanopreparatlarini (Novagumin, Mikroo'stirgich, Nanoxitozan, Askorbat xitozan, Nanoaskorbat xitozan) qo'llashning maqbul turlari, me'yorlari va muddatlari ishlab chiqilgan, natijada sholidan 2-5 s/ga qo'shimcha hosil olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining dala va kimyoviy-analitik usullaridan foydalangan holda matematik-statistik tahlil o'tkazilganligi natijasida asosida isbotlangan hamda olingan nazariy natijalarning amaliy ma'lumotlari tasdiqlanganligi, tajribadan olingan ma'lumotlarning mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi, nufuzli xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida ilmiy-tadqiqot natijalari chop etilganligi, olingan ishonchli va samarali natijalarning ishlab chiqarishga keng joriy qilinganligi mazkur ilmiy ishning ishonchliligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Orolbo'yi hududi degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning agrokimyoviy, kimyoviy, fizik va biologik xossalari o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'liqliklar, tuproqlar mikrobiotsenozining amilolitik va proteolitik qismi – organik moddalarini transformatsiyasi degradatsiyaga

uchragan tuproqlarning unumdorligini shakllantirish jarayonlaridagi o'zni asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududning sug'oriladigan kuchsiz sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning xossa-xususiyatlarini yaxshilash va degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini hamda sholi o'simligi hosildorligini oshirishda agrobiologik texnologiyalar samaraliligi va tuproqlarning biologik faolligi darajasiga ko'ra o'g'itlardan samarali foydalanish, biologik jarayonlarni maqbullashtirishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo'yi sug'oriladigan tuproqlarining hozirgi holati va ularning unumdorligini oshirish agrobiotexnologiyalari (Nukus tumani tuproqlari misolida) bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Orolbo'yi hududida degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning unumdorligini oshirishga qaratilgan agrobiotexnologiyalar amaliyotga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 15-iyundagi 01/02-2184-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, hududning degradatsiyaga uchragan tuproqlarining xossa-xususiyatlarining yaxshilanishi aniqlangan. Tuproq yuqori qatlamida nazoratga nisbatan suvga chidamli agregatlar miqdori 1,1-1,9 %, gumus miqdori 0,01-0,02 %, harakatchan fosforning 3,0-6,3 mg/kg va kaliy miqdori 35-50 mg/kg ga oshishiga erishilgan.

Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida Nukus tumani Nukus massivi fermer xo'jaliklarida qo'llanilgan bio- va nanopreparatlarning turlari, maqbul me'yorlari va qo'llash muddatlari amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 15-iyundagi 01/02-2184-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'simlik urug'iga va vegetatsiya davrlarida qo'llanilgan preparatlardan eng samaralisi Novagumin 1,2 l/ga va Mikroo'stirgichni 2,4 l/ga me'yorda ishlov berish tavsiya etilgan.

Nukus tumani Nukus massivi "Jaqsibay Kenjebay" fermer xo'jaligining 2 gektar, "Ilimpaz Orazbay" fermer xo'jaligida 11 gektar va Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida 12 gektar sholi maydonlarida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 15-iyundagi 01/02-2184-son ma'lumotnomasi). Natijada, hududda qo'llanib kelinayotgan an'anaviy sholi yetishtirish usulga nisbatan, bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan agrobiotexnologiya variantlarida sholidan 2-5 s/ga qo'shimcha hosil olingan va rentabellik 22,0-40,0 % gacha oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 1 ta xorijiy jurnalda, 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Orolbo'yi tuproqlarining unumdorligini oshirish yo'llari”** deb nomlangan birinchi bobida Orolbo'yi hududida tarqalgan tuproqlarning hozirgi holati va Orolbo'yi tuproqlarining unumdorligini oshirish agrobiotexnologiyalari tavsiflangan. Tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, tuproqni organik moddalarga boyitishga yordam beradigan agrotexnologiyalar qo'llanilishi, tuproqqa mos ekinlarni joylashtirish va ekinlar to'g'ri almashlab ekilishi, tuproq sifati yaxshilanishini hamda yuqori hosil olishga erishilishi ta'kidlab o'tilgan.

Tadqiqotchilar tomonidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda har xil sug'orish usullarining tuproqlar meliorativ holatiga ta'sirini, shuningdek, tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Natijada, Orolbo'yi hududida tarqalgan sho'rlangan tuproqlarda ekinlarni yetishtirishda suvni tejashga qaratilgan biointensiv texnologiyalardan foydalanilganda tuproqlar unumdorligini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va bu jarayon asosan ildiz rivojlanadigan qatlamlarda organik moddalarning ko'p miqdorda to'planishiga sabab bo'lganligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Orolbo'yi hududining tabiiy-iqlim sharoitlari va tadqiqot uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida hududning geografik joylashuvi va relyefi, gidrogeologik va geomorfologik sharoitlari, hududning iqlim xususiyatlari, o'simlik dunyosi va tadqiqot uslublari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot hududida 20 ta asosiy tuproq kesmalari olinib, genetik qatlamlarga ajratilgan va dala sharoitida ularning morfologik belgilari o'rganilgan hamda tahlil qilingan. So'ngra tadqiqot maydoni Nukus massivida joylashgan **“Jaqsibay Kenjebay”** fermer xo'jaligi tuproqlarini sholi ekish oldidan tahlil qilgan va may oyida sholi ekilgan maydonlarida bio- va nanopreparatlar qo'llanilishining tuproq xossa hamda xususiyatlariga, uning oziqa tartibotiga ta'siri aniqlangan. Tajriba 3 ta qaytariqda 11 ta variantda amalga oshirilgan. Bunda hamma bio- va nanopreparatlar ikkita me'yorda ya'ni Novagumin preparati 1000-1200 ml/ga, Mikroo'stirgich 2100-2400 ml/ga, Nanoxitozan, Askorbat xitozan, Nanoaskorbat xitozan nanopreparatlari 2700-3000 ml/ga hisobida qo'llanilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot hududi tuproqlarining asosiy xossalari**” deb nomlangan uchinchi bobida Nukus massivi tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari, sho‘rlanganlik holati, tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy va kimyoviy xossalari tavsiflangan. O‘rganilgan Nukus massivi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarining sho‘rlanish darajasi bo‘yicha ularning tarkibidagi quruq qoldiq va Cl^- ionining foiz miqdori bo‘yicha aniqlandi. Sulfatlar va xloridlar tarkibida o‘zaro nisbatga bog‘liq holatda (mg/ekv hisobida), o‘rganilgan tuproqlarning sho‘rlanishining kimyoviy tiplari o‘zaro farqlandi.

Hudud sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning qatlamlari har xil jumladan, o‘rtacha loy, yengil loy, og‘ir qumoq, o‘rta, yengil qumoq, qumoqli va yopishqoq qum bo‘lib, yirik qumli mexanik tarkibga ega ekanligi aniqlandi. Bunda yirik qum ($>0,25$ mm) 0,1 dan 1,1 %; o‘rtacha qum (0,25-0,01) 0,2-39,0 %, mayda qum (0,1-0,05) 34,7 % gacha; yirik chang (0,05-0,01) 16,7 dan 77,1 % gacha; o‘rtacha chang (0,01-0,005) 0,8 dan 23,1 % gacha; mayda chang (0,005-0,001) 2,4 dan 34,2 % gacha uchrashi aniqlandi. Fizik loyning ($<0,01$ mm) miqdori tuproq tarkibida 7,2 dan 81,9 % gacha oraliqda tebranib turishi aniqlangan.

Sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning zichligi 1,25-1,46 g/sm³ ekanligi aniqlandi, zichlik yil davomida ishlov berish, sug‘orish ta’sirida ayniqsa, sholi ekilgan maydonlarda yildan-yilga va mavsum davomida o‘zgarib turadi. Solishtirma og‘irlik yuqori qatlamdan pastga qarab 2,62-2,73 g/sm³ gacha ekanligi hamda g‘ovakligi shunga mos ravishda 46,5-52,3 % ni tashkil etdi. To‘liq nam sig‘imi (TNS) 31,2 % dan 40,5 % gacha ni tashkil etgan. Tuproqlarning to‘liq nam sig‘imi kapillyar nam sig‘imiga nisbatan 4-6 % ga yuqori bo‘lishi aniqlangan. Maksimal gigroskopik namligi (MG) yengil qumoqli ayirmalarda 4,2-4,6 %, o‘rta va og‘ir qumoqlilarda 3,6-4,8 % va 3,6-4,6 %, yengil loylida 4,2-4,8 % ni tashkil etgan. Suv o‘tkazuvchanligi yengil va o‘rtacha mexanik tarkibda yuqori ekanligini, og‘ir mexanik tarkib va yengil loyda nisbatan past ekanligini aniqlangan.


O‘rganilgan hudud gumus miqdori 0,10%-1,19% ekanligi aniqlanib, azot miqdori ham shunga qarab 0,011-0,096% oralig‘ida o‘zgarib turishi va fosforning harakatchan shakllari miqdori 3,0-22,0 mg/kg ni harakatchan kaliy esa 40-200 mg/kg oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi. Nukus massivida tarqalgan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar kuchsiz, o‘rtacha, kuchli va juda kuchli darajada sho‘rlangan bo‘lib, xlorli-sulfatli va sulfatli sho‘rlanish tiplari aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot hududi tuproqlarining biologik faolligi va tuproq unumdorligini oshirish yo‘llari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajriba maydoni tuproqlarining biologik faolligi, diagnostikasi, korrelyativ bog‘liqliklar, bio- va nanopreparatlarning tuproqlar sho‘rlanishiga, agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari, tuproq mikroorganizmlar miqdoriga va fermentlar faolligiga ta’siri, sho‘rlangan maydonlarda bio- va nanopreparatlar qo‘llashning sholining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarda fermentlarning faolligi asosan tuproqdagi gumus miqdoriga va sho‘rlanish darajalariga bog‘liq holda o‘zgarib bordi, bunda sho‘rlanmagan hamda kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarda o‘rtacha, kuchli va juda kuchli sho‘rlangan tuproqlarga nisbatan yuqori ko‘rsatgichga ega

bo'ldi. Sho'rlanmagan tuproqlarda peroksidaza faolligi bahorda 2,07-3,96 va polifenoloksidaza faolligi bo'lsa, 1,69-4,39 mg purpurgallin/100g ko'rsatkichga ega bo'ldi. Kuchsiz sho'rlangan tuproqlarimizda bo'lsa peroksidaza faolligi bahor mavsumida 0,98-2,98 va polifenoloksidaza faolligi 0,85-3,09 mg purpurgallin/100g tuproqda ko'rsatgichni tashkil etdi. Kuchli va juda kuchli sho'rlangan tuproqlarda bu fermentlar faolligi gumus miqdori kamligi hamda sho'rlanish darjasi yuqoriligi sababli boshqa tuproqlarga nisbatan past darajalarni ko'rsatdi, ya'ni peroksidaza faolligi bahorda 0,35-2,58 va polifenoloksidaza faolligi 0,34-2,65 mg ekanligi aniqlandi.


Tadqiqotlardan olingan natijalarda sho'rlanmagan tuproqlarda mikroorganizmlar miqdori yuqori ekanligi aniqlandi. Sho'rlanish darjasi ortgan sari ammonifikatorlar miqdori kamayib borishi namoyon bo'ldi. Ammonifikatorlar miqdori sho'rlanmagan hamda kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda 169-1324 ming dona bo'lsa, eng kam miqdorlari kuchli va juda kuchli sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda 28-775 ming donani tashkil etgan.



1-rasm. Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda mikroorganizmlar miqdorining sho'rlanish darajalari ta'sirida o'zgarishi.

Fosfor parchalovchi va oligonitrofillar ham sho'rlanmagan, kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda eng yuqori ko'rsatkichlar bahor davrida 16-125 ming dona hamda 18-91 ming donani tashkil etgan. Ularning juda kam miqdorlari kuchli va juda kuchli sho'rlangan tuproqlarda aniqlanib, fosfor parchalovchi mikroorganizmlar miqdori 3-51 ming dona bo'lsa, oligonitrofillar 2-31 ming donagacha aniqlanib pastki qatlamlarda mazkur mikroorganizmlar uchramaganligi aniqlangan (1-rasmga qarang).

Tadqiqotlar natijasida tuproqning fermentlar faolligi, mikroorganizmlarning miqdori hamda gumus miqdori o'rtasida yaqin bog'liqlik aniqlandi. Tuproqlarda oziqa elementlar miqdoriga bog'liq holda mikroorganizmlar rivojlanishida oziqlanish sharoiti asosiy o'rin tutadi. Tadqiqotdan olingan natijalarda shuni ko'rishimiz mumkinki, azot va fosfor miqdorlari o'rtasida bog'liqliklar aniqlandi.



2-rasm. Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning biologik faolligi va ularning gumus miqdori bilan korrelyatsion bog'liqligi

Olingan natijalarda ko'rishimiz mumkinki, azotning aylanish siklida, gumus paydo bo'lishida hamda tuproq strukturalanishida mikroorganizmlar faol ishtirok etadi. O'rganilgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning fermentativ va mikrobiologik faolligi, asosiy xossa-xususiyatlari o'rtasida bog'liqliklar aniqlandi: (bunda gumus $r=0,91-0,98$, harakatchan fosfor $r=0,92-0,97$, azot $r=0,91-0,97$, almashinuvchan kaliy $r=0,90-0,95$) (2-rasmga qarang).

**1-jadval
Orolbo'yi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar biologik faolligining (BF) eng informativ ko'rsatkichlari (yuqori qatlam)**

Gumus, %	Ammoni-fikatorlar	Fosfor parchalovchi	Oligonitrofillar	Mikromitsetlar	Aktinomitsetlar	Katalaza, $\text{sm}^3 \text{O}_2$ 1g/1 daqiqada	Peroksidaza	Polifenol-oksidaza	Invertaza, mg glyukoza 1g/ 24 soatda	Ureaza, mg NH_3 10g/ 24 soatda
	1 g tuproqda/ming dona						mg purpurgalin 100g/24 soat			
Sho'rlanmagan										
1,15	1219	110	78	174	830	3,3	3,77	4,16	3,83	2,56
Kuchsiz sho'rlangan										
1,08	1120	84	55	94	588	2,37	2,7	3,11	2,49	1,56
O'rtacha sho'rlangan										
0,78	962	65	40	74	540	1,6	2,63	2,72	1,92	1,1
Kuchli sho'rlangan										
0,71	726	37	22	56	483	1,33	2,34	2,39	1,61	0,88
Juda kuchli sho'rlangan										
0,63	488	25	15	30	338	0,9	2,13	2,14	1,33	0,64

Tadqiqotda olib borayotgan hududimizning tuproq unumdorligini hamda madaniy holatini baholashda va undan oqilona foydalanishda tuproqning biologik faolligiga va mikrobiologik holatiga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'rganilgan hudud o'tloqi-allyuvial sho'rlangan tuproqlarning biologik faolligini aniqlashda va unumdorlikni baholashda Kazeev hamda Kolesnikovlar (2012 yil) tomonidan taklif etilgan tuproq biodiagnostikasining nisbiy usulidan foydalanildi.

O'rganilgan hudud tuproqlari bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tuproqdagi biologik jarayonlarga tabiiy - iqlim sharoitlar, tuproqning fizikaviy, agrokimyoviy va kimyoviy xossalari ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Olib borilgan izlanishlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, sho'rlanmagan tuproqlarda biologik yuqori bo'lib, sho'rlanish darajalari ortgan sari biologik faollikning pasayganligi hamda mikroflora miqdori shunga mos ravishda kamayganligi aniqlangan (1-jadvalga qarang).

Bunda biodiagnostika usullari orqali tuproqlarning ekologik-biologik holatini baholash uchun tuproq biologik faolligining ko'rsatkichlarini bir vaqtning o'zida bir-biriga bog'lagan holda o'rganish talab etiladi. Ushbu usul orqali tuproqning ekologik-biologik holatining integral ko'rsatkichi qiymati (TEBHIK) umumiy nisbiy biologik faolligini (UNBF) aniqlash asosida aniqlandi. Shunga bog'liq holda, tadqiqotlarimiz davomida TEBHIK qiymatini aniqlash maqsadida gumus miqdori, fermentlar faolligi va mikroorganizmlar miqdori kabi bir qator informativ ko'rsatkichlardan foydalanilgan (Qodirova, 2019).

2-jadval


O'rganilgan tuproqlarning umumiy nisbiy BF, max yig'indiga nisbatan % hisobida

Gumus, %	Ammoni-fikatorlar	Fosfor parchalovchi	Oligonitrofillar	Mikromitsetlar	Aktinomitsetlar	Katalaza, sm ³ O ₂ 1g/1 daqiqada	Peroksidaza	Polifenol-oksidaza	Invertaza, mg glyukoza 1g/24 soatda	Ureaza, mg NH ₃ 10g/24 soatda
	1 g tuproqda/ming dona						mg purpurgalin 100g/24 soat			
Sho'rlanmagan										
100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Kuchsiz sho'rlangan										
93,9	91,9	76,4	70,5	54,0	70,8	71,8	71,6	74,8	65,0	60,9
O'rtacha sho'rlangan										
67,8	78,9	59,1	51,3	42,5	65,1	48,5	69,8	65,4	50,1	43,0
Kuchli sho'rlangan										
61,7	59,6	33,6	28,2	32,2	58,2	40,3	62,1	57,5	42,0	34,4
Juda kuchli sho'rlangan										
54,8	40,0	22,7	19,2	17,2	40,7	27,3	56,5	51,4	34,7	25,0

O'tkazilgan tajribalarimizdan quydagilar ma'lum bo'ldiki, mikroorganizmlar miqdori va fermentlar faolligi tuproqlarning mexanik tarkibi, kimyoviy, fizikaviy

xususyatlariga hamda ulardagi gumus va oziqa elementlari miqdoriga bog‘liq holda o‘zgaradi (Saidova, 2019). Olib borilayotgan tajriba variantlarimiz bo‘yicha har bir ko‘rsatkichning eng yuqori qiymati 100 % deb olinib, qolgan ko‘rsatkichlar bo‘lsa unga nisbatan hisoblab chiqildi. Bunda nisbiy ko‘rsatkichlar umumlashtirilib, natijalar yig‘indilari orasida yuqori bo‘lgan ko‘rsatkichga nisbatan foiz hisobida berildi.

Orolbo‘yi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarining ekologik-biologik holatining integral ko‘rsatkichi qiymatiga ko‘ra, tuproqlarni kamayib boruvchi qatorga joylashtirish mumkin: sho‘rlanmagan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar > kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar > o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar > kuchli sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar > juda kuchli sho‘rlangan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar (3-rasmga qarang).



3-rasm. Orolbo‘yi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlari sho‘rlanish darajasiga ko‘ra ekologik-biologik holatining integral ko‘rsatkichi qiymati (TEBHIK), %.

Tuproqlarning biologik faolligi tuproqning barcha xossalarida ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bunda tadqiqotlarini haqiqiy hamda nisbiy ko‘rsatkichlarni qiyoslash va eng asosiysi buning uchun kompleks holda yondashish zarur hisoblanadi.

Tuproqda fermentlar faoliyati natijasida organik moddalar va jonzoqlar qoldiqlari turli oraliq hamda tugallangan mineralizatsiya mahsulotlarigacha parchalanadi. Bu jarayonda mikroorganizmlar va o‘simliklarning oziqlanishi uchun o‘zlashtiriladigan oziqa moddalari hosil bo‘ladi. Tadqiqotlar davomida fermentlar faolligi va gumus o‘rtasidagi korrelyatsiyalarni o‘rganishda ularning to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlikda ekanligini aniqlandi. Bunda polifenoloksidazada $r=0,94-0,98$, peroksidazada $r=0,90-0,97$, invertaza fermentida $r=0,94-0,97$ ureazada $r=0,92-0,97$ katlaza fermentida $r=0,78-0,96$, gacha yaqin bog‘liqlik kuzatildi.

Tajriba maydoni tuproqlari kuchsiz sho‘rlangan bo‘lib, bio- va nanopreparatlarning 2020-2022-yillarda qo‘llanilgandan keyingi olingan natijalar


ko'rsatishicha, sholi ekilgandan keyingi tuproqning sho'rlanishi darajasi kuchsiz darajada sho'rlangan. Quruq qoldiq miqdori nazorat variantida 0,325-0,365 %, bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan Novagumin 1 variantida – 0,319-0,360 %, boshqa variantlarda Mikroo'stirgich 1 – 0,314-0,360 %, Nanoxitozan 1 – 0,318-0,361 %, Askorbat xitozan 1 – 0,316-0,362 %, Nanoaskorbat xitozan 1– 0,315-0,365 %, Novagumin 2 – 0,315-0,365 %, Mikroo'stirgich 2 – 0,316-0,360 %, Nanoxitozan 2 – 0,320-0,363 %, Askorbat xitozan 2 – 0,321-0,364 %, Nanoaskorbat xitozan 2 – 0,317-0,365 % ekanligi aniqlandi. Sho'rlanish darajasi bo'yicha bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan variantlarda quruq qoldiq miqdori nazoratga nisbatan pasayganligi aniqlandi.


Tuproq muhiti kuchsiz ishqoriylikka mansub, nazorat variantida (pH 7,30-7,35), bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan variantlarda (pH 7,27-7,35)ni tashkil etdi, ular o'rtasida katta farq kuzatilmadi. Bu holat mintaqamiz tuproqlari uchun xarakterli xususiyat deb ifodalanadi.

Biz tajribamiz davomida (2020-2022-yy) Nukus massivi Jaqsibay Kenjebay fermer xo'jaligidagi sholi maydonida qo'llanilgan bio- va nanopreparatlarning tuproq agrofizikaviy xossalariga ta'siri ham tahlil qilindi.

Sholi ekilgan maydonlarda suvning doimiy yuzada turishi hajm og'irligining oshib borishiga sababchi bo'ldi. Tahlillarga ko'ra nazoratga nisbatan Novagumin 1, Novagumin 2 variantida tuproq hajm og'irligi maqbul ko'rsatkichlarni tashkil etdi.


Tajriba maydoni sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari oziqa moddalariga bio- va nanopreparatlarning ta'sirini tahlil qildik. Gumus bo'yicha nazoratga nisbatan barcha bio- va nanopreparatlar ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan, ayniqsa Novagumin 1 va Novagumin 2 variantida yaxshi natija bergan. Demak, 3 yil davomida qo'llanilgan bio- va nanopreparatlar tuproq oziqa moddalarining miqdoriga ham ta'sir etgan (4-rasmga qarang).





4-rasm. Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning agrokimyoviy xossalari ga bio- va nanopreparatlarning ta'siri (2020-2022-yy.).

Tajribamizda bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan Novagumin 2 variantida azot, fosfor va kaliy miqdorlarida nazoratga va boshqa variantlarga nisbatan ustunlik qilgan. Oziqa moddalarning harakatchan shakllari bo'yicha nazorat variantida fosfor miqdori 7,6-16,5 mg/kg, kaliy miqdori 90-140 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan variantlarda fosfor miqdori 8,0-22,8 mg/kg, kaliy miqdorida 100-190 mg/kg ni tashkil etdi. Natijalardan ko'radigan bo'lsak, bio- va nanopreparatlarning miqdori bo'yicha yuqoridagi qonuniyatlar takrorlangan, ya'ni Novagumin varianti ustunlik qilgan.




5-rasm. Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning mikroorganizmlar miqdoriga bio- va nanopreparatlarning ta'siri (2020-2022-yy.).

Tadqiqotimizda sholi ekilgan tuproqlarda ammonifikatorlar organik moddalarni faol parchalab, azotning oson o‘zlashtirilishini ta‘minlagan. Ammonifikatorlarning eng kam miqdori nazorat variantida, eng ko‘p miqdori Novagumin va Mikroo‘stirgich qo‘llanilgan variantlarda aniqlangan, ya‘ni ularning tarkibidagi gumin va fulvokislotalari, azot, kaliy va biologik boshqa qo‘shimchalar tuproq tarkibiga faol ta‘sir etganligi aniqlangan. Boshqa mikroorganizmlar miqdorlari ham nazoratga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan (5-rasmga qarang).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mikroorganizmlar tuproqdagi barcha jarayonlarda ishtirok etadi, qo‘llanilgan bio- va nanopreparatlar mikroorganizmlarning faolligini oshiradi, gumifikatsiya va mineralizatsiya, organik moddalar transformatsiyasiga ta‘sir etadi, buning natijasida tuproqda yetarli oziqa moddalar hosil bo‘ladi, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi ortadi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarda sholining Nukus-2 navi ekildi va biz bio- va nanopreparatlar qo‘llashning sholi o‘simligi o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta‘siri aniqlangan (6-rasmga qarang).



6-rasm. Sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarda bio- va nanopreparatlar qo‘llashning sholi hosildorligiga ta‘siri (2020-2022 yy.).

Sholining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligida ham yuqoridagi qonuniyatlarga mos ravishda takrorlanganligi, ya‘ni nazorat variantiga nisbatan bio- va nanopreparatlar qo‘llanilgan variantlar ustunlik qilganligi, ayniqsa Novagumin va Mikroo‘stirgich variantlarida eng yaxshi natija qayd etilib, hosildorlik 2-5 sentnergacha nazoratga nisbatan yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

XULOSA

1. O'rganilgan hududning tuproqlar shakllanish sharoiti, degradatsiyasi jarayonlari, relyefi, iqlimi, tuproq hosil qiluvchi yotqiziq-lari, o'simlik qoplami, yer osti suvlar chuqurligi va minerallashganligi tuproqlarning turli darajada sho'rlanishiga olib kelgan. Sho'rlanish darajasi oshgan sari mexanik tarkibga ko'ra, tuproqlar morfologik belgilari o'zgarib borishi aniqlangan – gumusli qatlam kamayganligi, tuproq tusi ochroq bo'lganligi, tuzilishi zichlashganligi aniqlandi. Mexanik tarkibga ko'ra tuproqlar yengil va o'rta qumoqli, sozli, qumloqli va qumli qatlamlar almashib turishi bilan tavsiflandi.

2. Sho'rlanish jarayonlari hudud sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining gumus va oziqa elementlari bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir etishi tasdiqlangan. Sho'rlanish darajasi oshgan sari gumus va oziqa elementlarining kamayib borishi bo'yicha quyidagi kamayib boruvchi qatorga joylashtirish mumkin: sho'rlanmagan > kuchsiz sho'rlangan > o'rtacha sho'rlangan > kuchli sho'rlangan tuproqlar. Gumus va kaliy miqdori bo'yicha tuproqlar sho'rlanish darajasiga ko'ra "kam" va "o'rta", fosfor bo'yicha "juda kam" va "kam" ta'minlanganligi aniqlandi.

3. Hudud tuproqlari turli darajada sho'rlangan bo'lib o'ziga xos profil bo'yicha tuzlar tarqalishiga ega bo'lib, ular kuchsiz, o'rta, kuchli sho'rlangan. Sho'rlanish xlorid-sulfatli va sulfatli tiplarga mansubligi aniqlandi. Tuproqlar yuqori karbonatli, almashinuv sig'imi katta emasligi va ishqorlarga to'yinganligi bilan xarakterlandi. Hududning degradatsiyaga uchragan tuproqlari sho'rlanish darajasiga bog'liq ravishda umumiy fizik xossalari – hajm og'irligi va g'ovakligi hamda suv xossalari – maksimal gigroskopik namligi, kapilyar nam sig'imi, to'liq va dala nam sig'implari, suv o'tkazuvchanligi o'zgarib borishi kuzatildi.

4. Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar mikroorganizmlarining fiziologik guruhlari bo'yicha miqdori va tarqalish qonuniyatlari, sho'rlanish darajalari bilan bog'liqligi tasdiqlandi. Biologik faollik tuproqlarning agrokimyoviy, fizikaviy, kimyoviy xossalari bilan korrelyativ bog'liqliklari aniqlandi va tuproq paydo bo'lish jarayonlarida muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatildi. Tuproqda ammonifikatorlarning miqdori haydalma qatlamda sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda 1218-1324 ming donani tashkil etib, eng kam miqdori juda kuchli sho'rlangan tuproqlarda 568 ming dona ekanligi aniqlandi. Fosfor parchalovchi bakteriyalar, oligonitrofillar, mikromitsetlar, aktinomitsetlar miqdorlari sho'rlanmagan tuproqlarda ustunlik qilganligi kuzatildi. O'rganilgan hudud sho'rlanmagan tuproqlarda fermentativ faollik yuqori bo'lib, sho'rlanish darajalari ortgan sari fermentativ faollikning pasayganligi hamda mikroflora miqdori shunga mos ravishda kamayganligi aniqlandi.

5. O'rganilgan hudud tuproqlari tuproqdagi biologik jarayonlariga tabiiy-iqlim sharoitlar, tuproqning fizikaviy, agrokimyoviy xossalari va sug'orish davrining davomiyligi ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Hududning sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar mikrobiotsenozining amilolitik va proteolitik qismi - organik moddalarini transformatsiyasi (K_{OMT}) hamda degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini shakllantirish jarayonlaridagi o'rni isbotlandi. Orolbo'yi

sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning umumiy (BF) va nisbiy (NBF) biologik faolligi hamda uning informativ ko'rsatkichlari bo'yicha ta'minlanganlik va faollik darajasi aniqlandi. Orolbo'yi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining ekologik-biologik holatining integral ko'rsatkichi (TEBHIK) qiymatiga ko'ra sho'rlangan tuproqlarni sho'rlanish darajasi oshgan sari kamayib boruvchi qatoriga joylashtirish mumkinligi bilan tafsiflandi.

6. Tajriba maydoni sholi ekilgan tuproqlari kuchsiz sho'rlangan bo'lib, sholi urug'i va o'simlik vegetatsiyalik davrlarida bio- va nanopreparatlar qo'llanilganida o'simlik organlari yaxshi rivojlanib hosil oshishi sabab bo'ldi. Organik qoldiqning tuproqdagi hajmi ortishi tufayli oziqa moddalar, fermentlar va mikroorganizmlar miqdorining ko'payishi aniqlandi. Novagumin va Mikroo'stirgich preparatlari qo'llanilganda eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lganligi aniqlandi.

7. Tuproqda ammonifikatorlarning miqdori nazorat variantida bahorgi davrda 224-1200 ming dona/1g tuproq hisobida tashkil etgan, maqbul me'yorlarda qo'llanilgan bio- va nanopreparatlar variantlaridan Novagumin variantida o'rtacha - bahorgi davrda 263-1334 ming dona/1g tuproqda hisobida, Mikroo'stirgich variantida bahorgi davrda 280-1350 ming dona/1g tuproqda hisobida tashkil etganligi aniqlandi. Fosfor parchalovchi bakteriyalar, oligonitrofillar, mikromitsetlar miqdorida ham nazorat variantiga nisbatan bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan variantlar ustunlik qilganligi kuzatildi. Tajriba maydoni sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari kuchsiz sho'rlanganligi sababli, oksidazalar sinfiga mansub fermentlardan katalaza, peroksidaza, polifenoloksidaza faolligi nazorat variantiga nisbatan bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan variantlarda faolligi yuqori bo'ldi. Ushbu bog'liqlik invertaza va ureaza fermentlarining faolligida ham kuzatildi.

8. Orolbo'yi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning ekologik-biologik holati (TEBHIK)- tuproqning funksional va ko'p omilli xarakteristikasi bo'lganligi, tabiiy va antropogen omillarga ko'ra o'zgarib turishi isbotlangan va tuproqlar degradatsiya darajasi, unumdorligini baholash, monitoring jarayonlarini yuritishda, tuproqlardan oqilona foydalanishda tavsiya etildi.

9. Sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida sholi etishtirishda bio- va nanopreparatlar qo'llanilgan variantlarda o'simlikning o'sishi rivojlanishi va hosildorlik oshishi, tuproqning agrokimyoviy, agrofizik va biologik xossalari yaxshilanishi hisobiga 2-5 s/ga qo'shimcha hosil olindi, rentabellik darajasi 22-40 % ni tashkil qildi. Orolbo'yi sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda mazkur agrobiotexnologiyani qo'llash tavsiya etildi.

10. Hudud sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining morfogenetik, agrofizikaviy, agrokimyoviy, kimyoviy va biologik xossalari hamda degradatsiyaga uchragan tuproqlar unumdorligini tiklash va oshirishga qaratilgan agrobiotexnologiyalar bo'yicha olingan natijalar oliy o'quv yurtlarida tuproqshunoslik, agrotuproqshunos-agrokimyogar mutaxassislarini tayyorlashda bakalavriat va magistratura talabalari uchun ilmiy-amaliy ma'lumotlar sifatida foydalanish uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/5.05.2023.В/QX.01.17 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ШАМУРАТОВА ГУЛНАЗ МУРАТБАЕВНА

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ ПРИАРАЛЬЯ И
АГРОБИОТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ПРОДУКТИВНОСТИ
(НА ПРИМЕРЕ ПОЧВ НУКУССКОГО РАЙОНА)**

03.00.13 – Почвоведение

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире одной из главных проблем сельского хозяйства является засоление почв. Возникновение засухи в результате изменения климата, резкого повышения температуры приводит к увеличению площади засоленных почв. На сегодняшний день засоленные почвы занимают 8,7% земной поверхности. Из них более 424 миллиона гектара приходится на пахотный слой почвы, а 833 миллиона гектара наблюдаются на подпахотных слоях почв¹. Засоление почвы становится причиной нарушения ее свойств и нанесения большого ущерба сельскохозяйственным культурам. Поэтому изучение агрофизических, агрохимических свойств и биологической активности засоленных почв, а также использование агротехнологий для повышения их плодородия являются актуальными задачами.

На сегодняшний день в мире ведутся научные исследования по ряду приоритетных направлений по использованию современных агротехнологий для повышения плодородия орошаемых почв. При этом уделяется особое внимание определению влияния био- и нанопрепаратов на агрофизические свойства почв, на рост, развитие и урожайность сельскохозяйственных культур, и современным агротехнологиям, применяемым для оптимизации свойств почв и повышения их плодородия.

В республике проводятся широкомасштабные мероприятия по внедрению современных агротехнологий при эффективном использовании орошаемых почв республики. В результате достигается улучшение агрофизических и агрохимических свойств почв, повышение их плодородия и урожайности сельскохозяйственных культур. Однако, исследованиям по влиянию био- и нанопрепаратов на свойства почв на орошаемых почвах Приаралья уделяется недостаточное внимание. В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»² «...повышение плодородия почвы и защита ее от деградации» определены в качестве необходимых стратегических задач. По этой причине современные агротехнологии, используемые при определении влияния био- и нанопрепаратов на агрофизические и агрохимические свойства орошаемых почв Приаралья, повышение их плодородия, на рост, развитие и урожайность сельскохозяйственных культур приобретают важное значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-277 от 10 июня 2022 года «О мерах по созданию эффективной системы борьбы с деградацией земель»³, №ПП-4973 от 2

¹ <https://www.fao.org/soils-portal/data-hub/soil-maps-and-databases/global-map-of-salt-affected-soils/zh/>

